

## EVFEMIZMLARDA MADANIY O'XSHASHLIKLARNING AKS ETISHI

**Raimova Odinabonu Anvarjon qizi,**

*Guliston davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada evfemizmlarning qo'llanilishi xalq madaniyati bilan bog'liqligi ochiqqlangan. Unda o'zbek milliy qadriyatimiz hisoblangan oilaviy evfemizmlarga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda faol qo'llanayotgan siyosiy evfemizmlar ham tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, lingvokulturologik birlik, milliy konsept, madaniy kod, mentalitet, evfemizm, nutq, xalq madaniyati, lingvomadaniyatshunoslik, etnik madaniyat, tabu, disfemizm.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается связь между использованием эвфемизмов и народной культурой. Особое внимание уделяется семейным эвфемизмам, которые считаются национальной ценностью Узбекистана. Также анализируются политические эвфемизмы, активно используемые сегодня.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, лингвокультурное единство, национальное понятие, культурный код, менталитет, эвфемизм, речь, народная культура, лингвокультурология, этническая культура, табу, дисфемизм.

**Abstract.** This article reveals the connection between the use of euphemisms and folk culture. It focuses on family euphemisms, which are considered our Uzbek national value. Political euphemisms that are actively used today are also analyzed.

**Keywords:** linguoculturology, linguoculturological unity, national concept, cultural code, mentality, euphemism, speech, folk culture, linguoculturology, ethnic culture, taboo, dysphemism.

**Kirish.** Evfemizmlar madaniy hodisa sifatida til va madaniyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Turli xalqlarning nutqida uchraydigan evfemistik birliklarda ayrim madaniy o'xshashliklar kuzatiladi. Buning sababi shundaki, evfemizmlarga yuklatilgan vazifalar ko'p jihatdan o'xshash bo'ladi. Odatda evfemizmlar bajaradigan funksiyasiga qarab ikki guruhga ajratiladi: tabu va taqiq bilan bog'liq evfemizmlar hamda xushmuomalalikni ifodalovchi evfemizmlar.

Tabu va taqiq bilan bog'liq evfemizmlarda mavjud so'zga evfemistik ma'no yuklanadi. Natijada ushbu ma'no so'zning bevosita ishlatilmay qolgan asl mazmunini yashirish yoki yumshatish vazifasini bajaradi. Bunday holat leksik qatlam doirasida qaraladi va ko'pincha tabu tushunchasi bilan izohlanadi. Ya'ni taqiqlangan yoki ishlatilishi ma'qul bo'lmagan so'z yoki ibora o'rnida evfemistik birlik qo'llanadi. Shu tariqa muayyan so'zning lug'aviy ma'nosi evfemistik mazmun kasb etadi va nutqda yumshoqroq ifoda sifatida xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzuga oid adabiyotlar evfemizmlar va lingvokulturologiyaning nazariy hamda amaliy jihatlarini keng yoritadi. Xususan, L.V.Epoeva va M.V.Ivchenko tadqiqotlarida til birliklarining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari, ularning madaniy kontekstda ifodalanishi tahlil qilingan. D.Raxmanova va hammualliflar ishlari frazeologizmlar va konseptlarning turli tillardagi ifodalanishini qiyosiy jihatdan o'rganishga xizmat qiladi. Shuningdek, Sh.Rahmatullayev

hamda Sh.Usmonova asarlarida o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar va lingvokulturologiya masalalari chuqur yoritilib, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asoslab berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda lingvokulturologik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Evfemizmlar turli madaniyatlar kesimida o‘rganilib, ularning semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, til birliklarining madaniy asoslari va nutqdagi qo‘llanishi misollar orqali yoritildi.

**Tahlillar va natijalar.** “Tabu” atamasi ilmiy muomalaga birinchi bor ingliz dengizchisi va sayyohi J. Kuk tomonidan 1777-yilda Polineziyadagi Tonga orolida olib borilgan kuzatishlar natijasida kiritilgan. Mazkur so‘z Tonga tilidagi tapu (ta – “belgilamoq”, “ajratmoq”, pu – “butunlay”) birliklaridan kelib chiqqan bo‘lib, “butunlay ajratilgan”, “alohida belgilangan”, ya’ni “man etilgan” yoki “taqiqlangan” degan ma’noni bildiradi. Odatda tabu hodisasi ko‘plab xalqlarning mifologik tasavvurlari va qadimiy e’tiqodlari asosida shakllangan.

**Tabu va uning turlari:** Tabu – madaniy, diniy, irim-sirim yoki noxush holatlarni keltirib chiqarishi mumkin degan qarashlar asosida ayrim xatti-harakatlar yoki so‘zlarning qo‘llanishini cheklash yoki man etish hodisasidir. Jamiyat taraqqiyoti davomida bunday taqiqlar muayyan ijtimoiy va madaniy qarashlar bilan bog‘liq holda shakllanib kelgan.

Qo‘llanish doirasiga ko‘ra tabular odatda etnografik tabular va lingvistik tabular kabi ikki turga ajratiladi.

**Etnografik tabular:** Inson tabiatiga ko‘ra har qanday hodisadan o‘ziga foydali tomonlarni izlashga intiladi. Shu sababli u muayyan voqea va hodisalarni o‘z manfaatlari bilan bog‘lab talqin qilishga harakat qiladi. Vaqt o‘tishi bilan hayotiy tajriba ortib boradi va turli voqealar yaxshi yoki yomon deb baholanadigan hodisalarga ajratila boshlaydi. Natijada xalq tasavvurida ayrim hodisalar ijobiy, boshqalari esa salbiy belgilar sifatida qabul qilinadi.

Masalan, safarga chiqqan kishi yo‘lda oq tuyali karvonga duch kelsa, bu odatda uning maqsadi amalga oshishidan darak beradi, degan qarash mavjud. Shuningdek, yo‘lovchi uzoqdan bo‘rini ko‘rsa, hayotida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin deb talqin qilinadi. Aksincha, tulkini uchratish ba‘zan salbiy alomat sifatida baholanadi. Tush ta’birlarida ham shunga o‘xshash tasavvurlar uchraydi: masalan, tushida oppoq otga minib chavondozlik qilayotgan yigit ishlarining yurishib ketishidan darak beradi, degan qarashlar mavjud. Yoki uy oldida ukki sayrashi ba‘zan noxush hodisaga ishora sifatida talqin qilinadi.

Bunday misollar ko‘p marotaba kuzatilgan va tajribada sinalgan deb qaraladi. Ularning mazmuni turli odamlar tomonidan har xil tarzda izohlangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan xalq ongida muayyan qarashlar shakllanib borgan. Natijada ushbu qarashlar urf-odatlar va marosimlarning paydo bo‘lishiga ham asos bo‘lgan.

Masalan, suvga tupurmaslik, qaldirg'och inini buzmaslik, birovga yomonlik qilmaslik, yaxshilikni ayamalik kabi tushunchalar xalq orasida keng tarqalgan. Shuningdek, bir sochiqdan bir vaqtning o'zida ikki kishi foydalanmasligi yoki ayrim mevalarni teng bo'lib yeyish bilan bog'liq qarashlar ham mavjud. Bunday e'tiqod va irimlar asrlar davomida turli voqealar va kuzatishlar natijasida shakllanib, xalqning ijtimoiy ongida mustahkam o'rin egallagan.

O'zbeklarda supurgini, o'qlovni tik qo'ymaslik, birovning orqasidan supurmaslik, axlatdan hatlamaslik, otashkurakni oyoq ostida qoldirmaslik, suprani egasiz yig'ishmaslik nonning ushog'ini yerga tushirmaslik, qaychini ochib qo'ymaslik qalampirni qo'lga bermaslik, turkiy va eroniy xalqlarda suvni ifloslatmaslik, suvga tupurmaslik, mo'g'ullarda qozondan pichoq bilan go'sht olmaslik, chodirda suv to'kmaslik, olovga yaqin joyda daraxt kesmaslik, qamchiga tayanmaslik va h.k. irimlar etnografik tabular hisoblandi.

**Etnografik tabularning ayrim ko'rinishlari:** Tabu – madaniy, diniy e'tiqodlar, irim-sirimlar yoki noxush hodisalarni keltirib chiqarishi mumkin degan tasavvurlar asosida ayrim xatti-harakatlar hamda so'zlarning qo'llanishini taqiqlash yoki cheklash bilan bog'liq hodisadir.

Uzoq Sharq xalqlari madaniyatida ovqat iste'mol qilish bilan bog'liq muayyan urf-odatlar mavjud. Masalan, Xitoyda ovqat iste'mol qilishda "kuayzi", Koreyada esa "chokkarak" deb ataladigan maxsus tayoqchalardan foydalaniladi. Ushbu buyumlarni yerga tushirib yuborish yoki sindirib qo'yish ko'pincha yomon alomat sifatida talqin qilinadi. Shunga o'xshash etnografik tabularni o'zbek xalqining turmush tarzida ham uchratish mumkin. Masalan, rus madaniyati ta'sirida shakllangan ayrim qarashlarga ko'ra, dasturxoniga sanchqi, qoshiq yoki pichoq tushib ketsa, mehmon kelishidan darak beradi, degan irim mavjud.

Xitoy va koreys lingvomadaniyatida "kuayzi" yoki "chokkarak" faqat ovqatlanish jarayonida foydalaniladigan vosita hisoblanadi. Shu sababli ularni yalash, ular bilan odamga ishora qilish yoki boshqa noo'rin harakatlarni bajarish odob-axloq qoidalariga zid deb baholanadi. Bunday xatti-harakatlar milliy an'analarga hurmatsizlik sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, kosadagi guruch yoki boshqa ovqat ichiga tayoqcha yoki qoshiqni tik holda qo'yish ham nomaqbul hisoblanadi. Chunki ayrim madaniy tasavvurlarga ko'ra, bunday holat marhumga atalgan taomni eslatadi.

Agar ovqatlanish vaqtida tayoqchanning uchi dasturxon atrofida o'tirgan kishilardan biriga qaratib qo'yilsa, bu kelishmovchilik yoki janjal keltirib chiqaradi degan qarash ham mavjud. Shu sababli ovqatdan so'ng "kuayzi" yoki "chokkarak"ni maxsus taglikka qo'yish yoki tarelka oldiga uchini chap tomonga qaratib joylashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Xitoy an'analari Yangi yil dasturxoniga pichoq qo'yilmasligi ham o'ziga xos irim bilan bog'liq. Chunki pichoq bilan jarohat olish butun yil davomida omadning uzilishi

sifatida talqin qilinadi. O‘zbek madaniyatida ham bunga o‘xshash qarashlar mavjud. Masalan, dasturxonda fotiha o‘qilayotgan paytda pichoqni olib qo‘yish odat tusiga kirgan. Sababi, xalq orasida pichoq fotihani “kesib qo‘yadi”, degan tasavvur mavjud.

Ba’zi irimlar turli xalqlarda o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi. Masalan, xitoyliklar qalampirni to‘kib yuborish yaqin insonning xiyonatini bildiradi deb hisoblashsa, o‘zbeklarda qalampirni qo‘ldan qo‘lga berish janjal yoki kelishmovchilikka sabab bo‘ladi, degan qarash bor.

Bundan tashqari, diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq tabular ham mavjud. Masalan, musulmonlarda Qur‘on kitobini tahoratsiz qo‘lga olish mumkin emasligi ta’kidlanadi. O‘zbek xalqida qiblagaga oyoq uzatib o‘tirish yoki yotish hurmatsizlik deb qaraladi. Ba’zi xalqlarda esa pichoqni olovga tiqish ham man etilgan. Bu kabi taqiqlar diniy qarashlar asosida shakllangan tabular sifatida talqin etiladi.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, nutq jarayonida dag‘al, uyat ma’nolarni yumshatish, muloyimroq iboralarni qo‘llash xalqning ham umumiy madaniyatidan va uning bir bo‘lagi bo‘lgan nutq madaniyatidan darak beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Эпоева Л.В. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки (на материале английского и русского языков): Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Краснодар, 2007.
2. Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта «волшебство» в сказачном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010.
3. Rakhmanova, D., Zaripova, G., Rakhmatov, F., & Abdukhalilova, D. (2020). Nemis va ozbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi. Science and education, 1(8). 5. Raxmanova, D. (2021). Nemis va o‘zbek tilidagi vaqt konseptini ifodalovchi frazeologizmlar. Scientific progress, 1(5).
4. Dildora Abdinabiyevna Rahmanova (2021). DIE BEDEUTUNG DES ONLINE LERNENS IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 2), 470-473.
5. Petersen Marilyn. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Tashkent: Qatortol Kamolot, 2000. – P.125.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
7. Shoirra Usmonova. Lingvokulturologiya. Darslik.
8. Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998.